

OMON MATJON ASARLARINING TA'LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI (ALLA HAQIDA RIVOYAT ASARI TALQINIDA)

Samadova Maftuna Rustam qizi

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti,

boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

130-guruh, 4-kurs talabasi

Annatsiya: *Ushbu maqolada eng qadimiy qo'shiq sanalgan alla hamda allaning biz xayolimizga keltirmagan boshqa bir mo'jizasi, muqaddas qudrati, sehri bor ekanligi rivoyatning bosh qahramonlari Roziya, Robiya, Guljon hayoti orqali yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *alla, ona tuproq, dard, davo, Gurlan karvonsaroyi, Roziya, Robiya, Guljon, savdogar yigit*

Аннотация: *В этой статье освещается история самой древней песни «Аллах» и тот факт, что у Аллаха есть еще одно чудо, священная сила и магия, о которых мы даже не догадывались, через жизни главных героинь истории — Разии, Рабии и Гульджон.*

Ключевые слова: *Аллах, мать-земля, боль, исцеление, караван-сарай Гурлан, Разия, Рабия, Гульджон, мальчик-торговец*

Abstract: *This article highlights the fact that the most ancient song is Allah and that Allah has another miracle, sacred power, and magic that we have not imagined through the lives of the main characters of the story, Raziya, Rabiya, and Guljon.*

Keywords: *Allah, mother earth, pain, cure, Gurlan caravanserai, Raziya, Rabiya, Guljon, merchant young man,*

Bugungi kunda Omon Matjon ijodni o'rganish, asarlarni o'qish biz yoshlar uchun butun olam baxt desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, biz Xorazm elimizda shunday yozuvchi va shoirning borligi yashab ijod qilib o'tganligi bilan faxrlansak arziydi. Omon Matjon 1943 yili Xorazm viloyatining Gurlan tumanida tavallud topgan. O'rta maktabni tugatgach, Samarqand davlat universitetida tahsil oldi. 1969-2002-yillar mobaynida G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida muharrir, bo'lim boshlig'i, "YOshlik" jurnalida bosh muharrir, "CHo'lpon" nashriyotida direktor bo'lib ishladi. Omon Matjon o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab matbuotda o'z she'rlari bilan ko'rina boshladi. Keyinchalik shoirning eng yaxshi she'rlari "Ochiq derazalar" (1970), "Karvon qo'ng'irog'i" (1973), "Quyosh soati" (1974), "Dramatik dostonlar" (1975), "YOnayotgan daraxt" (1977), "YArador chaqmoq" (1979), "Haqqush qichqirig'i" (1979), "Seni yaxshi ko'raman" (1983), "Daraxtlar va giyohlar" (1984), "Ming bir yog'du" (1989), "O'rtamizda birgina olma" (1990), "Odamning soyasi quyoshga tushdi" (1991), "Qush yo'li" (1993), "Iymon yog'dusi" (1995), "Diydor aziz" (2011), "Xaloskor ruh" (2012) kabi yigirmaga yaqin she'riy to'plami, "To'rabekaxonim" nasriy qissasi va "Najmiddin Kubro", "Ardaxiva" badialari chop qilindi. Bu to'plamlardagi "Amu", "Oybek", "SHu'lalardan hayratlanish", "Ona degan so'z", "Turnalar", "Mezon", "CHorlov", "O'n uchinchi eshik", "Umrimiz haqida" kabi she'rlari

hozirgi o‘zbek she’riyatining eng yaxshi namunalaridan bo‘lib, ularda inson qalbining turfa jilolari rang-barang tashbehlarda, jozibali obrazlarda ifodalangan. Shu asarlari ichidan menga eng yoqgani va tarbiyali ahamiyatga ega bo‘lgan asari bu “Alla haqida rivoyat yohud Haqqush qichqirigi”. Bu asar shunday jumlar shunday jumlar keltirib o‘tilgan-“Qiz ketdi. Kichikroq to‘y ham qilib berishdi sho‘rlik ota-ona. Ketishi oldidan ona Roziyani bag‘riga bosib qiziq bir iltimos qildi. “Jon bolam, sog‘ bo‘l, salomat bo‘l. baxtli bo‘l. Bitta o‘tinchim: Bola ko‘rsang ularning hech biriga alla aytma! Aytsang, butun umr norozi ketaman...”[4] kabi jumla bilan boshlanadi. Ushbu asar voqealari Qadimgi Gurlanda Roziya, Robiya, Guljon uch dugona hayotida sodir bo‘lgan voqealari, Roziyaning xorijlik yigitga ko‘ngil qo‘yishi ota-onani norozi qilishidan boshlanadi. Roziyani onasi qiziga to‘yi bo‘lishi chog‘ida farzand ko‘rsang alla aytma, alla aytsang ham rozi bo‘lmayman degan gaplarni aytadi. Roziya farzandlarini nobud bo‘lishi oqibatida shunday qiyinchiliklarga tushadiki onasini gapini unutishga majbur bo‘ladi. Roziya qiynoqda qoladi o‘g‘li katta bo‘lib, tengqurlari bilan o‘yinga chiqib ketganida, o‘ziga o‘zi alla aytadi, yig‘laydi.[4] Bolaligida eshitgan qo‘shiqlari uzuq-yuluq bo‘lib bo‘g‘ziga tiqiladi va bolalikdagi shu jumalarni esga oladi:

Osmonga qarasam oyning bolasi,
Orqamga qarasam Gurlan qal’asi...
Gurlanning yo‘llari olisdan-olis,
Gurlanning yo‘linda yonadi fonus...
Gurlanning yo‘llari yo‘l bo‘lg‘onmikan,
Egnida oq ko‘ynak kir bo‘lg‘onmikan?!
Manov turgan bizni yorning hovlisi,
Shamol bilan kelar Gurlanning isi...

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Roziyaning ota- onasini norozi qilgani bilan baxtli bo‘la olmaganlikini, ota-bobolarimizning “ota rozi-xudo rozi” degan so‘zlari bekorga aytilmagan. Garchi onani norozi qilgan bo‘lsa ham O‘zbek ayollariga xos bo‘lgan “Jon bolam, sog‘ bo‘l, salomat bo‘l. baxtli bo‘l”-degan so‘zlarni qiziga ayamasdan oq fotiha bilan uzatadilar. Alla, birinchi qo‘shiq, barcha onalar qo‘shig‘i, bu qo‘shiqda farzandiga yaxshilik, ezgulik, mehr-muhabbat, yurtiga ona vatanga sadoqat tuyg‘ularini singdiradi. Bu rivoyatda ham allaning sehrli kuchi shundaki betob go‘dakning shifo topishi va tinch uxlab orom olishi, alla eshitgan bolaning ruxiyatida sikunlik va tinchlik bo‘lib qolishi haqida gap bormoqda. Allalar ham har bir joylarda o‘ziga xos uslubda ijro etiladi. Allalar har bir onaning o‘z so‘zi, o‘z ohangida alohida aks etadi. Qadim-qadim zamonlardagi xasrat dard, alam, alamli allalar o‘rnini hozirgi kunda tinch farovon obod, go‘zal turmushimizni aks ettiruvchi so‘zlar bilan kuylanishi yoki ijro etilishini alohida ta’kidlab o‘tishimiz mumkin. Qizning yoshligi va orzu havaslarga berilib, ota-onani norozi qilib chet elga turmushga chiqib ketgani va vaqt o‘tishi bilan oilasi, yaqin kishilarini so‘ginib, ona bo‘lganidan keyin onani qadrini biladi va tushunib yetadi. Xullas, Roziya onasi qilgan iltimosiga endi tushunganday bo‘ldi. Lekin u alla shunchaki yaqin kishilarni, qarindosh-do‘stlarni esga solib, yurakni siqar ekan, deb o‘yladi. Lekin u bu sog‘inch, bu intilishning tub zamini qayerdan ekanini anglab yetgani yo‘q! Allada biz xayolimizga keltirmagan boshqa bir



mo‘jiza, muqaddas qudrat, sehr bor degan edik. Men bu asardan shuni tushunib yetdimki, ota-onamizni har bir so‘zlari bizning kelajakimiz uchun poydevor vazifasini bajaradi ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatning rivojlanishi – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so’zi, 2017. 4-avgust.
2. Matjon Omon. “Ming bir yog’du”. T., 1998, 39-bet
3. Matjon Omon. “Haqqush qichqirig’i”. T., 1979, 46-bet